

---

## FUQAROLAR QABULI O'TKAZILDI



Qo'shtepa tumani hokimi I.Novikov va sektor rahbarlari ishtirokida mahallalarda fuqarolar bilan ochiq muloqotlar davom etmoqda. Har galgidek bugun ham shunday fuqarolar qabuli bo'lib o'tdi.

Yoshlar markazida "Qiyqi" va "Soy bo'yi" mahalla fuqarolar yig'inlari, tuman Maktabgacha ta'lim bo'limiga qarashli 45-maktabgacha ta'lim tashkilotida "Xumdon" mahalla fuqarolar yig'inida istiqomat qiluvchi aholi vakillari uchun fuqarolar qabuli tashkil etildi.



Qabul davomida fuqarolarning murojaatlari sektor rahbarlari tomonidan tinglandi. Shuningdek, mas'ul rahbarlar ishtirokida tumanda jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar ham muhokama qilindi. Tuman hokimi I.Novikov tomonidan aholi murojaatlarini ijobiy hal etish bo'yicha tegishli topshiriqlar berildi.

### **Qo'shtepa tumani hokimligi**

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#),

2021-08-07 20:38:26